



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№7(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 470 sahifa,
13-iyul, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Bolalik davridagi autizmning turli shakllarini differensial tashxislash	10
<i>Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>	
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda qo'llaniladigan korreksion ish tamoyillari	14
<i>Karimova Zulfiya Abduraxmanovna, Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda axborot iste'mol madaniyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari	19
<i>Dadonova Aziza Tulkunovna</i>	
Ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini psixologik tahlili	23
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	
Oliy ta'lim tizimida muammoli o'qitish texnologiyasi	30
<i>Tuksanova Zilola Izatulloyevna</i>	
Shahar va qishloq yuqori sinf o'quvchilarida irodaviy sifatlarning qiyosiy tahlili	35
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	
Organik kimyo ta'limida ochiq tipli STEAM loyihalarini loyihalashning didaktik modeli va uni amaliyotga joriy etish metodikasi	41
<i>Bo'riyev Rashidbek O'ktamjonovich</i>	
Kasbiy kompetentlikni oshirishda raqamli ta'lim vositalari va interaktiv metodlardan foydalanish	47
<i>Fazildjanova Nilufar Xikmatdjanovna</i>	
Tadbirkorlik faoliyatini innovatsion va ta'lim ekotizimidagi roli	50
<i>Mirzayeva Nigora Ibrohimjon qizi</i>	
Kasbiy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruvni joriy etishning nazariy-metodologik asoslari	54
<i>Qobilov Voxidjon Zoxidovich</i>	
Психологические факторы мотивации личности в обучении иностранному языку	58
<i>Мухамеджанова Римма Рашидовна</i>	
Jadid ma'rifatparvarlarining boshlang'ich ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda kitobxonlik fazilatlarini va madaniyatini shakllantirishdagi pedagogik tajribalari	66
<i>Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Fayzilova Mohinur Azamhon qizi</i>	
Talabalarda kelajakni strategik modellashtirish layoqatini rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy va mahalliy tajribalarning qiyosiy-pedagogik tahlili	70
<i>Sadriddinova Feruza Meliyevna</i>	
Bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda fanlararo abstsessial va ordinal bog'liqlikka asoslangan metodik ta'minotni takomillashtirish	75
<i>Xudayberganov G'ayrat Quranboyevich</i>	
Maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni isloh qilish: muammo va yechimlar	80
<i>Qudratov O'ktam G'ofurovich</i>	
Ustoz-shogird tizimida raqamli vositalardan foydalanishning metodik asoslari	85
<i>Tursunov Xusniddin Isomovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda maktab va oila hamkorligining pedagogik imkoniyatlari	88
<i>Safarova Halovat Barnoyevna</i>	
Globallashtirish sharoitida tolerantlik madaniyatining nazariy-metodologik asoslari	91
<i>Yusupova Maftuna Ilxomiddin qizi, Qurbonova Zebiniso Mamarajab qizi</i>	
Adobe After Effects muhitida inersiyaviy davomiylik va ustma-ust harakatni avtomatlashtirishning matematik modeli (Ziyoanim Overlap)	97
<i>Hakimov Bahtiyorjon Muzaffar o'g'li</i>	
Tizimli yondashuv asosida talabalarining raqamli kompetensiyasini takomillashtirishning uch komponentli konseptual modeli	101
<i>Kulidjanova Yulduzxon Inomjon qizi</i>	



The Theory of Fostering Students' Responsibility for Natural Resources and Waste in Karakalpak Folk Pedagogy.....	104
<i>Tursinbekova Qundizgul Joldasbekovna</i>	
Soft skills kompetensiyalarining ilmiy-pedagogik mohiyati va zaruriyati: soft skills tushunchasining evolyutsiyasi, asosiy komponentlari, turlari va tasnifi	109
<i>Igamberdiyeva Gulmira Botir qizi</i>	
O'zbek va ingliz tillarida "yolg'izlik" konseptining leksik-semantik xususiyatlari.....	115
<i>Sabina Saitmurodova Olim qizi</i>	
Bo'lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlashda art-pedagogikaning imkoniyatlari.....	119
<i>Komolova Iroda Xamidullayevna</i>	
9-sinf iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslarida GIS texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va uslubiy muammolari	123
<i>Sapayeva Gulbahor Odilbek qizi</i>	
Zamonaviy biologiya ta'limida interaktiv metodlarni qo'llashning nazariy jihatlarini	126
<i>Abdullayeva Guzalxan Vladimirovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini xalqaro baholash dasturlari bilan ishlashga tayyorlashning zarurati	130
<i>Berdimurodova Mexrubon Masudjonovna</i>	
Nutq nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning ijtimoiy moslashuv jarayoniga ta'sir etuvchi omillar	136
<i>G'aniyeva Maloxat Odilovna</i>	
Ruh salomatlikni mustahkamlashda psixologik treninglarning ahamiyati	140
<i>Maqsuda Norbosheva, Nafisa Abduyeva</i>	
Xitoy tilini xalqaro miqyosda o'qitishning zamonaviy tendensiyalari.....	144
<i>Shasaidova Lola Shamaksudovna</i>	
Социально-экологический кризис в Южном Приаралье.....	149
<i>Сейтова З. П.</i>	
Iqtisodiy fanlar bo'yicha to'garak faoliyatini tashkil etishning nazariy-metodik asoslari.....	153
<i>Xusanboyeva Tursunoy Muxammadqasimjanovna</i>	
Motivational Readiness for Continuous Professional Development.....	162
<i>Okilova Kamola Sadulloyevna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarda antisotsial xulq-atvorning oldini olishning pedagogik mexanizmlari ..	166
<i>Davronova Zarrina Baxtiyorovna</i>	
Yapon tilini o'qitishda らしい (rashii) evidentsiallik ko'rsatkichini o'rgatishning pedagogik xususiyatlari	173
<i>Musayeva Aziza Ibrohim qizi</i>	
Ta'lim tizimini rivojlantirishda pedagogik prognostikaning nazariy-metodologik asoslari va metodik imkoniyatlari.....	178
<i>Sharipova Shaxnoza Xasanovna</i>	
Qoraqalpoq nasrida inson psixologiyasi.....	183
<i>Dosbergenova Miyrigul Sadiratdinovna</i>	
Tibbiy ta'lim klasterida talaba markazlashgan muhitni shakllantirish: kredit-modul sharoitida intellektual adaptiv tyutorlik texnologiyasining pedagogik imkoniyatlari	188
<i>Ibragimova Venera Azadovna</i>	
Turli yosh davrlarida perfektsionizm va maqullanish motivatsiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish.....	193
<i>Nazaraliyeva Marhabo Xayitboyevna</i>	
Frazeologik derivatsiyaning lingvomadaniy xususiyatlari	197
<i>Raxmonova Gavhar Nuritdinovna</i>	
Development of adolescent thinking and its psychodiagnostics and psychocorrection	202
<i>Samarova Shoxista Rabidjanovna</i>	
Jadid pedagogik konsepsiyasi va zamonaviy ta'lim tizimi integratsiyasi: tarixiy-pedagogik tahlil va amaliy yo'nalishlar	209
<i>Shamsullayeva Ruxsatoy Sunnatullayevna</i>	

Kredit-modul tizimi asosida kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarini kasbiy kompetensiyalarini baholashning pedagogik mexanizmi	213
<i>Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich</i>	
Modern Socio-Psychological Trends in the Study of Emotional Alienation	219
<i>Yangibaeva Dildorakhon Rakhmon kizi</i>	
O'quv-mashq guruhi futbolchilarining jismoniy tayyorgarligi.....	225
<i>Xolmaxmatov Boburjon Musurmon o'g'li</i>	
Sport ta'limida axborot bilan boyitilgan o'quv muhitini yaratish va vizualizatsiya vositalarining didaktik imkoniyatlari	230
<i>Muxitdinova Nigora Mexriddinovna</i>	
Bo'lajak mutaxassislarda yangi avlod darsliklari bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	236
<i>Abdujalilov Farruxbek Po'latjon o'g'li</i>	
O'smirlarda deviant xulq-atvor shakllanishining psixologik xususiyatlari.....	239
<i>Robiya Toshpo'latova Akmal qizi, X. A. Asqarova</i>	
Aralash ta'limning pedagogik mohiyati va didaktik tamoyillari.....	244
<i>Azerbayeva Elmira Muratbayevna</i>	
Texnikaviy fanlarni o'qitish jarayonini tashkil qilish	248
<i>Niyazova Bibiniso Boltayevna</i>	
Estetik tarbiya va ruhiy go'zallik: san'at va adabiyotga muhabbat orqali shaxsdagi buzg'unchi xulq-atvorning oldini olish.....	253
<i>Nigora Yo'ldasheva Sodiqjon qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar asosida bo'lajak qishloq xo'jaligi muhandislarini loyihalash-konstruktsiyalash faoliyatiga tayyorlash metodikasini takomillashtirish	259
<i>Xolmo'minova Shahnoza Gulyam qizi</i>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining raqamli kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari.....	264
<i>Axrorov Xurshid Xamidovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tanqidiy tafakkurini rivojlantirishning nazariy asoslari	271
<i>G'ofurova Mohidil Sayfutdin qizi</i>	
Bo'lajak muhandislarning geoinformatsion kompetentligini rivojlantirish muammosi tahlili	275
<i>Berdiyev Dilshod Faxriddin o'g'li</i>	
Академия Маъмуна: силиконовая долина средневековья.....	279
<i>Аъзамова Диёра Дильшодовна</i>	
Biblioterapiya vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida qadriyatlarga ijobiy munosabatni shakllantirish yo'llari va vositalari.....	286
<i>Komolova Shoxsanam Muzaffar qizi</i>	
Ixtisoslik fanlarini o'qitishda raqamli modellashtirish vositalarini didaktik moslashtirish: integrativ ta'lim platformasi misolida.....	291
<i>Usarov Jabbor Eshbekovich</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'qishga bo'lgan munosabatini klasterli yondashuv asosida rivojlantirish – pedagogik muammo sifatida.....	297
<i>Umarova Gulhayo Murodiljon qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari.....	301
<i>Salayjonova Saodatjon Maxsudbek qizi, Nyutonova Xilola Lochinbekovna</i>	
Boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuv va zamonaviy o'qitish strategiyalarining nazariy-amaliy asoslari	305
<i>G'ulomjonova Mohinur Ulug'bek qizi</i>	
Формирование профессиональных компетенций педагога будущего в условиях цифровой трансформации и внедрения технологий искусственного интеллекта.....	309
<i>Sodikova Diloromkhon Botirjon qizi</i>	
Geografiya darslarida milliy meros va qadriyatlarni o'rgatish metodikasini takomillashtirish hamda uning samaradorligini statistik baholash.....	313
<i>Xabibullayeva Muxabbatxon Nu'monjonovna</i>	



Jadidlar tomonidan darslik va o'quv qo'llanmalarining nashr etilishi	319
Aslonov Madamin Mansurovich	
Chust va Samarqandda ekoturizm rivojlanishida milliy hunarmandchilikning o'rni va ahamiyati	324
Allanov Shuxrat Qilichovich	
Maktab direktor o'rinbosarlarining aksiologik kompetensiyasini diagnostika qilish mezonlari	329
Toxirov Botirjon G'ofurjon o'g'li	
Talabalarda maqsadga intiluvchanlik namoyon bo'lishining psixologik mexanizmlari va shakllanish jarayonlari	335
Babadjanova Saiyora Khushnutovna	
Maktabgacha ta'lim muassasasi rahbarining kasbiy faoliyatida stress va vaqt bosimini boshqarish usullari	340
Xalilova Soxibaxon Sadikjanovna	
Namoyishli tajriba va laboratoriya ishlari asosida o'quvchilarning amaliy kompetensiyalarini shakllantirishning metodik-didaktik ta'minoti	346
Isroilov Shermurod Shamsiddin o'g'li	
Xotin-qizlarda ijtimoiy-psixologik xulq-atvor strategiyalarining migratsiya turiga bog'liq differensial namoyon bo'lishi	353
Axmedova Dildora Olimjonovna	
Rus tilidagi mediamatnlr bilan ishlashda geymifikatsiya elementlarini qo'llash	359
Maxkamov Shoxjaxon Rustambek o'g'li	
Shaxsning o'zini anglash jarayonida refleksiyaning psixologik mohiyati	365
Achilova Durdona	
Bo'lajak oligofrenopedagoglar--ning praksiologik tayyorgarligining tarkibiy tuzilmasi	370
Niyozova Dilfuza Rustam qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda interaktiv raqamli o'yinlar va vizualizatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi	375
Teshaxo'jayeva Mohlaroy Shuhratxo'ja qizi	
Bo'lajak surdopedagoglarni tayyorlashda innovasion surdo-texnologiyalar, neyro-trenajyorlar va faol praksiologik metodlarning interaktiv sinergiyasini joriy etish	380
X. I. Malikova	
Onkologik bemorlarga psixologik yordam ko'rsatishning zamonaviy texnologiyalari va ularning hayot sifatiga ta'siri	385
Niyazova Nilufar Farxadovna	
Zamonaviy ta'lim muassasalarida axborot-pedagogik ma'lumotlar bazasini yaratish va o'quv jarayonini monitoring qilishda undan samarali foydalanish metodikasi	391
Mirzayeva Dilnoza Ulug'bek qizi	
Моделирование текста как средство развития речи младших школьников: сопоставительный анализ отечественных и зарубежных исследователей	395
Каипова Гузель Ильдаровна	
Qisqa masofaga yuguruvchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda kompleks mashg'ulot vositalarining samaradorligi	400
Ruzmetov Furqat Ikramovich	
Англоязычные заимствования в современном русском языке: функции и механизмы адаптации	406
Мажидова А. О.	
Oliy ta'limda jismoniy tarbiya o'qituvchilarining raqamli savodxonligini oshirishning pedagogik asoslari tahlili	411
Abduraimov Shaxboz Panji o'g'li	
XXI asr kompetensiyalarini boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllantirishda texnologiya fani roli	417
Bozorova Lola	
MELQO modeli asosida 6-7 yoshli bolalarda ikkinchi tilni o'rganish jarayonida tasavvur rivojlanganligini baholash metodikasi	420
G'aniyeva Shahlo Abduqahhor qizi	

Hozirgi jamiyat sharoitida yosh kelin-kuyovlarning yangi oilaviy muhitga moslashuv jarayoni.....	426
Nazirqulova Nodira G'anijanovna	
Epistemik tafakkurning ilmiy tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirishdagi o'rni	429
Raximova Aziza Davranbekovna	
Matematika ta'limida steam loyihalarini tashkil etishning nazariy-metodik modeli	432
Umarqulov Abdusattar Amanboyevich	
Педагогические и психологические основы формирования компетенций в сфере фриланса у учащихся общеобразовательных школ.....	441
Пурханова Толганай Жуманазаровна	
Talaba-qizlarda sun'iy intellekt savodxonligi va liderlik kompetensiyalarini integratsiyalashgan holda rivojlantirish texnologiyasi.....	445
Davlatjonova Mohidil Ulug'bek qizi	
Ko'zi ojiz talabalarni cholg'u chalishga o'rgatishda Brayl notasining o'rni va pedagogik samaradorligi	449
Raximov Yorqinjon Nuriddin o'g'li	
Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishni boshqarishning tashkiliy-pedagogik jarayonlari	456
Kimsanova Rahnamo Solijonovna	
Tarixiy tafakkur tushunchasi, mazmun-mohiyati hamda pedagogik asoslari	461
Ashurova Gulnozaxon Asqaraliyevna	
Autizmga ega bo'lgan bolalar rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari va ularni pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlash	465
Usmanova Nilufar Ilhom qizi, Utbasarova Umida Mexmanovna	



AUTIZMGA EGA BO'LGAN BOLALAR RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNI PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK QO'LLAB- QUVVATLASH

Usmanova Nilufar Ilhom qizi

Alfraganus universiteti ijtimoiy fanlar fakulteti
maxsus pedagogika logopediya yo'nalishi talabasi

Utbasarova Umida Mexmanovna

Alfraganus universiteti ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi
PhD v. b dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada autizm spektr buzilishiga ega bo'lgan bolalar rivojlanishining o'ziga xos jihatlari, ularning nutqiy, ijtimoiy, emotsional hamda bilish faoliyatidagi farqli tomonlari yoritilgan. Autizmli bolalarning rivojlanishi me'yoriy rivojlanayotgan bolalar bilan qiyosiy tahlil qilinib, ularda uchraydigan asosiy klinik va pedagogik belgilar tahlil etilgan. Shuningdek, autizmli bolalarda muloqot, idrok, fonematik eshitish, nutqni tushunish, noverbal kommunikatsiya va ijtimoiy moslashuv bilan bog'liq qiyinchiliklar ko'rib chiqilgan. Maqolada bunday bolalarni erta aniqlash, ta'lim va tarbiya jarayonida individual yondashuvni tashkil etish hamda korreksion-pedagogik ishlarning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: autizm, autizm spektr buzilishi, rivojlanish xususiyatlari, nutqiy rivojlanish, kommunikatsiya, ijtimoiy moslashuv, korreksion pedagogika, psixik rivojlanish, logopediya, maxsus pedagogika.

Abstract: This article examines the developmental characteristics of children with Autism Spectrum Disorder (ASD), focusing on the specific features of their speech, social, emotional, and cognitive development. A comparative analysis of children with ASD and their typically developing peers is presented to identify the main clinical, psychological, and pedagogical characteristics of the disorder. Particular attention is paid to difficulties related to communication, perception, phonemic awareness, speech comprehension, nonverbal communication, and social adaptation. The study highlights the importance of early identification of ASD, the implementation of an individualized approach in the educational process, and the organization of systematic corrective and pedagogical support.

Key words: autism, autism spectrum disorder (ASD), developmental characteristics, speech development, communication, social adaptation, corrective pedagogy, psychological development, speech and language therapy, special education.

Аннотация: В статье рассматриваются особенности развития детей с расстройством аутистического спектра (РАС), а также специфические характеристики их речевого, социального, эмоционального и познавательного развития. На основе сравнительного анализа развития детей с РАС и их нормально развивающихся сверстников раскрыты основные клинические и психолого-педагогические особенности данного нарушения. Особое внимание уделено проблемам коммуникации, восприятия, фонематического слуха, понимания речи, невербальной коммуникации и социальной адаптации детей с аутизмом. Обоснована значимость раннего выявления расстройства, организации индивидуального подхода в процессе обучения и воспитания, а также проведения системной коррекционно-педагогической работы.

Ключевые слова: аутизм, расстройство аутистического спектра, особенности развития, речевое развитие, коммуникация, социальная адаптация, коррекционная педагогика, психическое развитие, логопедия, специальная педагогика.

KIRISH

Bugungi kunda bolalar rivojlanishidagi buzilishlarni erta aniqlash va ularga o'z vaqtida pedagogik hamda psixologik yordam ko'rsatish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shunday rivojlanish xususiyatlaridan biri autizm spektr buzilishi bo'lib, u bolaning ijtimoiy munosabatlari, nutqiy rivojlanishi, xulq-atvori hamda tashqi olamni qabul qilish jarayonlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.



Autizm – bu bolalik davrida namoyon bo'ladigan va insonning keyingi rivojlanish bosqichlariga ham ta'sir etuvchi murakkab psixik rivojlanish holatidir. Ushbu holatda bolada muloqotga kirishishdagi qiyinchiliklar, emotsional javoblarning o'ziga xosligi, stereotip harakatlar, qiziqishlarning torligi hamda nutq rivojlanishidagi o'zgarishlar kuzatilishi mumkin. Shu sababli autizmli bolalar bilan ishlash faqat tibbiy yondashuv bilan chegaralanib qolmay, balki pedagogik, psixologik va logopedik qo'llab-quvvatlashni ham talab qiladi.

Autizmga ega bo'lgan bolalarning rivojlanish jarayonini o'rganish shuni ko'rsatadiki, ularda idrok, diqqat, xotira, nutq va ijtimoiy moslashuv jarayonlari o'ziga xos tarzda shakllanadi. Ayniqsa, nutqiy rivojlanishning kechikishi, o'z fikrini ifodalashdagi qiyinchiliklar, ko'z bilan aloqaning sustligi hamda emotsional javoblarning o'zgarishi ta'lim jarayonida maxsus yondashuvni talab etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi autizmga ega bo'lgan bolalar rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish, ularning nutqiy va ijtimoiy rivojlanishidagi muammolarni yoritish hamda korreksion-pedagogik faoliyatning ahamiyatini ko'rsatishdan iborat. Autizmli bolalar bilan ishlashda individual ta'lim dasturlari, korreksion mashg'ulotlar, nutqni rivojlantirish texnologiyalari va ijtimoiy moslashuv usullaridan foydalanish muhim hisoblanadi. Erta tashxis va tizimli yordam bolaning rivojlanish imkoniyatlarini kengaytiradi hamda uning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Autizm spektr buzilishi (ASB) bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mazkur rivojlanish buzilishi nafaqat tibbiyot, balki psixologiya, maxsus pedagogika, logopediya va neyropsixologiya fanlarining ham dolzarb tadqiqot obyektiga aylangan. Turli mualliflarning ilmiy ishlari autizmning kelib chiqish sabablari, klinik belgilari, diagnostikasi, nutq va bilish jarayonlaridagi o'ziga xosliklari hamda pedagogik korreksiya usullarini yoritishga qaratilgan.

O'zbekistonda autizm muammolarini maxsus pedagogika nuqtayi nazaridan yoritgan mualliflardan biri L. R. Muminova hisoblanadi. Olimaning "Autizm sabablari, turlari va bartaraf etish metodikalari" nomli ilmiy ishida autizmning kelib chiqish omillari, asosiy klinik belgilari hamda korreksion-pedagogik ishlarning mazmuni batafsil bayon etilgan. Muallif autizmli bolalarda ijtimoiy muloqotning sustligi, stereotip harakatlar, nutq rivojlanishidagi kechikish va emotsional javoblarning o'ziga xosligi asosiy diagnostik mezonlardan biri ekanligini ta'kidlaydi. Shuningdek, u erta tashxis qo'yish hamda logopedik, psixologik va pedagogik yordamni uyg'un holda tashkil etish bolaning keyingi rivojlanishiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishini ilmiy asoslaydi [1, 18–31-b.].

Shuningdek, L. F. Burlachukning ilmiy ishlarida psixologik diagnostikaning zamonaviy metodlari, test natijalarini tahlil qilish tamoyillari va diagnostik xulosalarni shakllantirish masalalari keng yoritilgan. Muallif autizm kabi rivojlanish buzilishlarida faqat test natijalariga emas, balki kompleks klinik-pedagogik kuzatuvlarga ham tayanish zarurligini qayd etadi [8, 97–118-b.].

Bolalar va o'smirlarni psixologik maslahat bilan ta'minlash masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlarda rivojlanishida nuqson kuzatiladigan bolalar bilan ishlashda ota-onalar, pedagoglar va psixologlarning hamkorligi, individual rivojlantirish dasturlarini tuzish hamda oilaga psixologik maslahat berishning ahamiyati ilmiy asoslangan [9, 57–82-b.; 10, 112–137-b.].

Autizm va boshqa rivojlanish buzilishlarini tushunishda L. S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasi alohida o'rin tutadi. Olimning psixik funksiyalarning ijtimoiy muhit ta'sirida shakllanishi, yaqin rivojlanish zonasi nazariyasi hamda korreksion ta'limning rivojlantiruvchi imkoniyatlari asoslab berilgan. Vigotskiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarda saqlanib qolgan imkoniyatlarga tayanish zarurligini ta'kidlaydi. Mazkur g'oya bugungi kunda autizmli bolalar bilan individual pedagogik ishlashning metodologik asoslaridan biri hisoblanadi [11, 186–214-b.].

Maxsus pedagogik diagnostika yo'nalishida S. D. Zabramnaya bolalarni kompleks psixologik-pedagogik tekshirish uchun maxsus ko'rgazmali materiallar, topshiriqlar va kuzatish mezonlarini ishlab chiqqan. Ushbu metodikalar autizmli bolalarning nutqiy, bilish va kommunikativ rivojlanish darajasini baholash hamda individual korreksion dasturlarni ishlab chiqishda keng qo'llaniladi [12, 29–55-b.].

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, autizm spektr buzilishi ko'p omilli va murakkab rivojlanish holati bo'lib, uni o'rganishda tibbiy, psixologik, logopedik va pedagogik yondashuvlarning integratsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchilar tomonidan autizmli bolalarda nutq, kommunikatsiya, ijtimoiy moslashuv va bilish faoliyatidagi buzilishlar chuqur o'rganilgan bo'lsa-da, ularning individual imkoniyatlariga moslashtirilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish, erta korreksion yordam tizimini rivojlantirish hamda inklyuziv ta'lim sharoitida samarali metodikalarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda. Shu jihatdan mazkur tadqiqot autizmga ega bo'lgan bolalar rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini pedagogik-psixologik nuqtayi nazardan tahlil qilish hamda ularga samarali qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda autizm spektr buzilishiga ega bo'lgan bolalar rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini yoritishda ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, nazariy umumlashtirish hamda pedagogik kuzatish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, autizmlı va me'yoriy rivojlanayotgan bolalarning nutqiy, psixologik va ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichlari qiyosiy tahlil qilinib, olingan ilmiy ma'lumotlar umumlashtirildi. Tadqiqot natijalari asosida autizmga ega bo'lgan bolalarni pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlash bo'yicha ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Autizm spektr buzilishiga ega bo'lgan bolalarda intellektual va shaxs rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlar nutq rivojlanishidagi kamchiliklar bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Shu sababli autizmlı bolalarning rivojlanish jarayoni me'yoriy rivojlanayotgan tengdoshlarinikidan sezilarli darajada farq qiladi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sog'lom bolalarda tug'ilgan ilk kunlardan oq idrok jarayoni faol rivojlana boshlaydi va keyingi yosh bosqichlarida izchil takomillashib boradi. Ayniqsa, fonematik eshitish qobiliyati erta shakllanadi hamda tovushlarni talaffuz qilishdan oldin rivojlanadi. Bola atrofidagi nutq tovushlarini eshitish, ularni farqlash va idrok etish orqali artikulyatsion apparat faoliyati takomillashadi. Natijada bola o'z nutqida ham, boshqalarning nutqida ham tovush tarkibini farqlay oladigan darajaga yetadi. Autizm spektr buzilishiga ega bo'lgan bolalarda esa rivojlanishdagi dastlabki farqlar bir yoshdan boshlab namoyon bo'la boshlaydi. Ular uzoq vaqt davomida atrofdagi buyumlar yoki harakatlanayotgan obyektlarga diqqatini qaratmaydi, ko'z bilan kuzatish sust rivojlanadi hamda bosh miya po'stlog'ining integrativ faoliyatida o'zgarishlar kuzatiladi. Shuningdek, odatda chaqaloqlarda kuzatiladigan "jonlanish kompleksi" autizmlı bolalarda juda sust yoki rudimentar ko'rinishda namoyon bo'ladi.

Nutq rivojlanishining muhim tarkibiy qismi hisoblangan fonematik idrok bolaning nutqdagi ma'no anglatuvchi tovushlarni eshitishi, ularni bir-biridan farqlashi va fonemalarning xususiyatlarini aniqlay olish qobiliyatini anglatadi. Me'yoriy rivojlanishda impressiv va ekspressiv nutq bir-biri bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi, buning natijasida bolaning lug'at boyligi hamda leksik-grammatik tuzilmalari izchil rivojlanadi.

D. B. Elkoninning tadqiqotlariga ko'ra, nutqni tushunish uchun bolaning predmetni ajrata olishi, diqqatini unga yo'naltira bilishi va emotsional holati yetarli darajada shakllangan bo'lishi zarur. Rivojlanishning dastlabki bosqichlarida kattalarning murojaati bolaga sezilarli ta'sir ko'rsatmasa-da, keyinchalik u predmet joylashgan tomonga qaraydi, diqqatini yo'naltiradi va asta-sekin predmet bilan so'z o'rtasidagi bog'liqlikni anglay boshlaydi. Nutqni idrok qilish rivojlangan sari bola berilgan ko'rsatmalarga javob qaytaradi, bog'langan nutqi shakllanadi va savod o'rganish uchun zarur psixologik zamin yaratiladi. Autizmlı bolalarda esa ushbu jarayonlar sezilarli darajada kechikadi yoki buziladi. Dastlab ayrim so'zlar passiv va faol lug'atda paydo bo'lsa-da, keyinchalik ular yo'qolib ketishi mumkin. Ko'pincha ekholaliya, ya'ni "aks-sado nutqi" kuzatiladi. Bola so'zlarni takrorlaydi, biroq ularning mazmunini anglamaydi, savol bermaydi va suhbatni davom ettirishda qiyinchiliklarga duch keladi. Nutqning sur'ati, ravonligi va mazmuniy tomoni buziladi. Shuningdek, nutqiy aloqaga kirishish istagi sust bo'lib, suhbatdoshining gaplariga e'tibor bermaslik, nutqni tushunmaslik va undan muloqot vositasi sifatida foydalana olmaslik holatlari uchraydi. Shu sababli autizmlı bolalar muloqot jarayonida kattalarning doimiy yo'naltiruvchi va rag'batlantiruvchi yordamiga ehtiyoj sezadilar.

Autizmlı bolalarda nonverbal kommunikatsiya ham yetarli darajada rivojlanmaydi. Ko'z bilan aloqa qilishning sustligi, yuz ifodalarning cheklanganligi, imo-ishoralardan kam foydalanish va harakatlarning nomuvofiqligi muloqot samaradorligini pasaytiradi. Ularning aksariyatida tengdoshlari bilan muloqot qilish istagi sust bo'ladi, boshqa bolalar bilan birgalikdagi o'yinlarga qiziqmaydi, yolg'iz qolishni afzal ko'radi hamda yangi vaziyat va o'zgarishlardan qo'rqadi. Ayrim hollarda qo'zg'aluvchanlik, jahldorlik yoki, aksincha, o'ta passivlik kuzatiladi. Ota-onadan uzoqlashganda xavotir bildirmasligi yoki atrofdagi insonlarga befarq munosabatda bo'lishi ham autizmning xarakterli belgilaridan hisoblanadi.

L. S. Vigotskiy, A. I. Gvozdyev, A. N. Leontev, D. B. Elkonin va L. E. Jurovaning ilmiy tadqiqotlari me'yoriy rivojlanayotgan bolalarda besh yoshgacha fonematik idrok va nutqni tovush orqali qabul qilish qobiliyati jadal rivojlanishini ko'rsatadi. Aynan shu davr nutqiy faoliyatni rivojlantirish va savod o'rgatishga tayyorgarlik ko'rish uchun eng qulay bosqich hisoblanadi.

S. Gillberg tomonidan ishlab chiqilgan diagnostik mezonlarga ko'ra, autizm spektr buzilishida ijtimoiy munosabatlarning jiddiy buzilishi, tengdoshlar bilan aloqa qilish istagining sustligi, imo-ishora va ishoralarni tushunmaslik hamda ijtimoiy vaziyatlarga mos bo'lmagan xulq-atvor kuzatiladi.

Bundan tashqari, autizmlı bolalarda tor doiradagi qiziqishlar, stereotip faoliyatlar, qat'iy tartibga rioya qilishga intilish, mexanik xotiraning nisbatan ustun rivojlanishi, nutq rivojlanishining kechikishi, ekspressiv nutqning g'ayrioddiyligi, prosodik buzilishlar hamda nutq mazmunini tushunishdagi qiyinchiliklar uchraydi. Shu bilan birga, nonverbal kommunikatsiya vositalaridan foydalanishning cheklanganligi, yuz ifodalarning kambag'alligi, nigohning o'ziga xosligi va motor rivojlanishdagi qo'pollik ham autizm spektr buzilishining muhim klinik-peda-

gogik belgilaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Shu bois autizmli bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya va korreksion-pedagogik ishlar ularning individual rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi zarur.

Autizm spektr buzilishiga ega bo'lgan bolalarda noverbal kommunikatsiya ham o'ziga xos tarzda rivojlanadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bunday bolalarda imo-ishoralardan foydalanishning cheklanganligi, harakatlarning o'zaro muvofiqlashmaganligi, yuz ifodalarning kambag'alligi yoki vaziyatga mos kelmasligi hamda nigohning g'ayrioddiy tarzda uzoq vaqt bir nuqtaga qadalib qolishi kabi belgilar kuzatiladi. Ushbu xususiyatlar ijtimoiy muloqotning samarali shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi hamda atrofdagilar bilan emotsional aloqa o'rnatishni qiyinlashtiradi. Shuningdek, autizmli bolalarda motor rivojlanishi ham o'ziga xos bo'lib, psixologik tadqiqotlarda harakat koordinatsiyasining sustligi, nozik va yirik motorika ko'rsatkichlarining pastligi hamda harakatlarning qo'pol va nomuvofiq bajarilishi qayd etiladi.

Autizm spektr buzilishi ko'pincha boshqa tibbiy va nevrologik holatlar bilan birgalikda uchraydi. Ayrim bolalarda intellektual rivojlanishning sustligi, ko'rish va eshitish analizatorlari faoliyatidagi buzilishlar kuzatiladi. Tadqiqotlarga ko'ra, autizmli shaxslarning bir qismida eshitish qobiliyati sezilarli darajada pasaygan yoki to'liq yo'qolgan bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, ayrim irsiy va somatik kasalliklar, jumladan, tuberoz skleroz va gipomelanoz kabi sindromlar autizm bilan birgalikda uchrashi kuzatilgan. Shuningdek, tashqi genital a'zolar rivojlanishidagi nuqsonlar, bosh miyaning chakka bo'lagi va miya stvoli faoliyatidagi disfunktsiyalar hamda o'z-o'ziga shikast yetkazishga moyillik autizm bilan birga namoyon bo'lishi mumkin.

Autizm ayrim hollarda irsiy sindromlar, xususan, Nozik X-xromosoma sindromi bilan ham bog'liq bo'ladi. Bunday holatlarda bolalarda o'ziga xos nigoh xususiyatlari, ya'ni suhbatdoshning ko'ziga tik qarashdan qochish yoki salomlashish vaqtida yuzini boshqa tomonga burish kabi belgilar kuzatiladi. Ushbu jihatlarda logoped va maxsus pedagog tomonidan korreksion ishlarni rejalashtirish jarayonida albatta hisobga olinishi zarur.

Autizm odatda bolaning uch yoshgacha bo'lgan davrida namoyon bo'ladigan va butun hayoti davomida saqlanib qoladigan neyrorivojlanish buzilishi hisoblanadi. Bunday bolalar nutqni egallashlari mumkin, biroq nutqdan foydalanishda o'ziga xos xatolar kuzatiladi. Masalan, ular o'ziga nisbatan "men" o'lmoshi o'rniga "sen" yoki "u" o'lmoshlarini qo'llashi mumkin.

Bundan tashqari, autizmli bolalar ko'z bilan bevosita aloqa qilishdan qochadilar, quchoqlash yoki jismoniy yaqinlikka nisbatan noqulaylik his qiladilar hamda boshqa insonlarning hissiy holatini tushunishda qiyinchilikka duch keladilar. Ularning xulq-atvori giperfaollik yoki, aksincha, haddan tashqari sustlik bilan namoyon bo'lishi mumkin. Ko'pincha ular o'z ichki dunyosiga berilib ketadi, ism bilan chaqirilganda javob bermaydi, uzoq vaqt davomida bir nuqtaga tikilib qolishi yoki bir xil harakatlarni takrorlashi kuzatiladi.

Autizmli bolalarda, ayniqsa, 2–5 yosh oralig'ida emotsional portlashlar va xulq-atvor buzilishlari ham tez-tez uchraydi. Bunday holatlar o'zini yerga tashlash, tepinish, tishlash, o'z sochini tortish, boshini devorga urish, qo'llarini tishlash, yuzini tirnash, kuchli yig'lash, baland ovozda baqirish yoki atrofdagi buyumlarga zarar yetkazish kabi ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin. Ayrim holatlarda autizm epilepsiya, intellektual rivojlanishning sustligi yoki boshqa nevrologik kasalliklar bilan birgalikda uchraydi.

Maxsus pedagogika sohasidagi ilmiy tadqiqotlar autizmli bolalarda kuzatiladigan nutq kamchiliklari psixik rivojlanishdagi buzilishlarning ajralmas tarkibiy qismi ekanligini ko'rsatadi. Nutqning yetarli darajada shakllanmaganligi bilish jarayonlari, tafakkur, xotira va diqqatning rivojlanishini qiyinlashtiradi hamda bolaning shaxs sifatida kamol topishi va jamiyatga ijtimoiy moslashuviga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ruhiy rivojlanishdagi kamchiliklar esa, o'z navbatida, nutqning rivojlanishini yanada sekinlashtirib, atrofdagilar bilan samarali muloqot o'rnatishga to'sqinlik qiladi. Shu sababli autizm spektr buzilishiga ega bo'lgan bolalarning nutqiy va psixik rivojlanish xususiyatlarini chuqur o'rganish, ularning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda korreksion-pedagogik dasturlarni ishlab chiqish hamda amaliy tavsiyalarni takomillashtirish maxsus pedagogika va logopediya fanlarining eng dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

XULOSA

Autizmga ega bo'lgan bolalar rivojlanishi murakkab va ko'p omilli jarayon bo'lib, ularning psixik, nutqiy va ijtimoiy rivojlanishida o'ziga xos xususiyatlar kuzatiladi. Bunday bolalarda muloqotga kirishishdagi qiyinchiliklar, nutq rivojlanishining sustligi, emotsional reaksiyalarning o'ziga xosligi hamda tashqi muhit bilan o'zaro ta'sirning cheklanganligi ta'lim va tarbiya jarayonida alohida yondashuvni talab qiladi. Shu bilan birga, autizmli bolalarning imkoniyatlarini to'g'ri baholash, ularga mos pedagogik sharoit yaratish hamda korreksion ishlarni tizimli ravishda olib borish ijobiy natijalarga erishishda muhim omil hisoblanadi.

Maxsus pedagog, logoped, psixolog va ota-onalarning hamkorligi bolaning nutqiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi hamda mustaqil hayot ko'nikmalarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Kelgusida autizmga ega bo'lgan bolalarning rivojlanish xususiyatlarini chuqur o'rganish va amaliy metodikalarni takomillashtirish maxsus pedagogika sohasining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Муминова Л. Р. Аутизм сабаблари, турлари ва бартараф этиш методикалари. – Тошкент, 2015. – 156 б.
2. Актуальные проблемы диагностики задержки психического развития детей. – Москва : Педагогика, 1991. – 216 с.
3. Актуальные проблемы нейропсихологии детского возраста : учебное пособие / под ред. Л. С. Цветковой. – Москва : НПО "МОДЭК", 2001. – 304 с.
4. Атлас для экспериментальных исследований отклонений в психической деятельности человека / под ред. проф. Н. А. Полищука, доц. А. Е. Видренко. – Киев, 1980. – 184 с.
5. Блейхер В. М., Крук И. В., Боков С. Н. Практическая патопсихология : руководство для врачей и медицинских психологов. – Ростов-на-Дону : Феникс, 1996. – 448 с.
6. Бодалев А. А., Столин В. В. Общая психодиагностика. – Москва : Речь, 2000. – 440 с.
7. Бурлачук Л. Ф., Морозов С. М. Словарь-справочник по психологической диагностике. – Санкт-Петербург : Питер, 2004. – 528 с.
8. Бурлачук Л. Ф. Психодиагностика. – Санкт-Петербург : Питер, 2002. – 352 с.
9. Возрастно-психологическое консультирование. Проблемы психического развития детей. – Москва : Издательство МГУ, 1990. – 192 с.
10. Возрастно-психологический подход в консультировании детей и подростков / под ред. Г. В. Бурменской, Е. И. Захаровой. – Москва : Академия, 2002. – 416 с.
11. Выготский Л. С. Проблемы развития психики. – Москва : Педагогика, 1983. – 368 с.
12. Забрамная С. Д. Наглядный материал для психолого-педагогического обследования детей в медико-психологических комиссиях. – Киев : Радянська школа, 1988. – 104 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.